



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### TENGLIK DEGAN OYNA SINIB QOLSA...

**Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti 1 -kurs talabasi*

Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : [sevinchbonusv@gamil.com](mailto:sevinchbonusv@gamil.com)

**ANNOTATSIYA** *Insoniyat butun hayoti davomida faqat va faqat tarraqqiyot sari intilgan. Ammo bu rivojlanish yo'lida doim bir zanjir uzilib qolar edi: bu – ayol edi. Hatto bugungi kunda gender tengligi – inson huquqlari va taraqqiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, insoniyat hamon bu tenglikni to'la-to'kis ta'minlashda oqsamoqda. Ayollarni kamsitish, har sohada huquqlarining cheklanishi va faqat uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishlariga majburlash holatlari ko'pchilik mamlakatlarda ayni damda ham uchrashi achinarli, albatta.*

*Gender tengligi – ikki jins vakillarining bir xil huquqqa ega ekanligini anglatibgina qolmasdan, ularga hurmat va qaror qabul qilish erkinligini berish demakdir.*

*Ushbu maqolada gender tengligining asosiy roli, uni ta'minlashda jasorat ko'rsatgan ayollar va bu tenglikni ta'minlashda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *gender tengligi, konstitusiya, huquq, qonun, ta'lim, BMT, saylov huquqi, zo'ravonlik.*

### WHEN THE MIRROR OF EQUALITY SHATTERS...

**Annotation** *Throughout its entire existence, humanity has strived solely for progress. However, on this path of development, there has always been a missing link — and that link was woman.*

*Even today, although gender equality has become an integral part of human rights and development, humanity still struggles to fully ensure this equality. It is truly unfortunate that discrimination against women, the restriction of their rights in many spheres, and forcing them to be engaged only in domestic duties still occur in many countries.*

*Gender equality does not merely mean having the same rights for both sexes — it means granting them mutual respect and freedom in decision-making as well.*

*This article discusses the essential role of gender equality, highlights the courageous women who have fought to achieve it, and explores the reforms being carried out in Uzbekistan to ensure this equality.*

**Keywords:** *gender equality, constitution, rights, law, education, UN, voting rights, violence.*





КОГДА РАЗБИВАЕТСЯ ЗЕРКАЛО РАВЕНСТВА...

**Аннотация** *На протяжении всей своей истории человечество стремилось исключительно к прогрессу. Однако на этом пути развития всегда выпадало одно звено — и этим звеном была женщина. Даже сегодня, когда гендерное равенство стало неотъемлемой частью прав человека и устойчивого развития, человечество по-прежнему испытывает трудности в полном обеспечении этой равноправности.*

*Унижение женщин, ограничение их прав в различных сферах и принуждение заниматься исключительно домашними делами — всё это, к сожалению, до сих пор встречается во многих странах.*

*Гендерное равенство — это не просто одинаковые права для представителей обоих полов, но и уважение к ним, а также предоставление свободы в принятии решений.*

*Данной статье рассматриваются значение гендерного равенства, женщины, проявившие смелость в борьбе за него, а также реформы, проводимые в Узбекистане для обеспечения этой справедливости.*

**Ключевые слова:** *гендерное равенство, конституция, право, закон, образование, ООН, избирательное право, насилие.*

“Gender” tushunchasi, biologik emas, balki ijtimoiy rol va kuzatishlarga asoslangan farqlarni anglatadi. Gender tengligi esa – ayol va erkaklarga bir xilda teng imkoniyatlar yaratilishi, hurmat qilinishi va fikr va qarorlari teng inobatga olinishi demakdir. Bu esa ayollar ham erkaklar kabi ishlashi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ta’lim olishi va boshqa huquqlarini amalga oshirishi mumkinligini anglatadi. Gender tengligi bu faqat ayollar masalasi emas, bu jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb nuqtasi. Zero, mamlakatda ayollar diskriminatsiyadan aziyat chekar ekan, bu yerda rivojlanish bo’lishi mushkul.

Tarixdan barchamizga ayon, ayollar asrlar davomida jamiyatda ikkinchi darajali shaxs sifatida ko’rilgan. Qonunda mustahkamlangan bironta huquq va erkinliklaridan erkin foydalana olmagan.

Ammo, ba’zi jasoratli ayollar bu notenglikni to’g’irlashga harakat qilishdi, bu yo’lda kurashib, butun dunyoni birlashishga chorlashdi. Hozirgi kunda ularning ismlari nafaqat tarixda, balki erkinlik tarafdori bo’lgan har bir inson ongida muhrlanib qolgan. Quyida, ushbu ayollarning ba’zilar haqida so’z yuritiladi:

**Malala Yusufova**<sup>75</sup> - Malala Pokistonlik qiz bo’lib, u yerda ayol va qizlarning ta’lim olishini da’vat qilgan, ammo bu ishi davlat tomonidan yuritilgan siyosatga qarshi bo’lganligi uchun tolibon tomonidan otib ketilgan, bu kurashda o’lim bilan yuzlashgan bo’lishiga qaramasdan, mamlakatdagi ahvolni yaxshilash uchun butun dunyoni harakatga chorlagani

<sup>75</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Malala\\_Yousafzai](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Malala_Yousafzai)



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



uchun 2014-yilda Tinchlik Noble mukofoti bilan taqdirlangan va biz yoshlarga ham kuch bag‘ishlashi uchun ushbu hayotiy voqeani “Men Malalaman” nomi ostida kitob holida chop ettirgan.

Navbatdagi vakil esa taniqli Britaniya aktrisasi Emma Watson<sup>76</sup> hisoblanadi. U BMTning HeForShe kompaniyasi doirasida gender tengligi bo‘yicha so‘zlagan nutqida:

"Gender tengligi — bu erkaklarga qarshi kurash emas. Bu hammamiz uchun kurash. Erkaklar ham bu tenglikdan manfaatdor."U ayollarni faqat qurbon yoki kuchsiz sifatida emas, yetakchi va teng huquqli inson sifatida ko‘rsatish muhimligini ta’kidladi.

Valentena Tereshkova<sup>77</sup> esa koinotga qadam qo‘ygan ilk ayol hisoblanadi, bu esa ayollar nafaqat uy ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanishga, balki shu kabi keng doiradagi imkoniyatga ham ega ekanligining tirik isbotidir.

Afsuski, Gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida e’tirof etilgan xalqaro muammolardan biri hisoblanadi.

Shu sababli BMT bu tenglikni saqlash, ayollarga farovon jamiyatni ta’minlash maqsadida qator islohotlarni amalga oshirmoqda.

Xususan, CEDAW<sup>78</sup> ( The Convention on the elimination of All Forms of Discrimination against Women). Ya’ni “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish” to‘g‘risidagi konvensiya. Ushbu hujjat xalqaro jamiyatda ayollarning huquqlarini himoya qiluvchi konstitutsiya sifatida e’tirof e’tiladi. CEDAW konvensiyasi ayollarning barcha huquqlarini ta’minlashni va kamsitilishlarga qarshi turishni kafolatlaydi. Bundan tashqari YUNICEF ham har yili 3 milliondan ortiq ayol va bolalarning ta’lim olishi va sog‘lom muhitda yashashi uchun ko‘maklashadi. Bilamizki BMT tomonidan tasdiqlangan 17 ta global maqsad ichida 5- maqsad “Gender tengligini ta’minlash<sup>79</sup>” deb nomlangan.

Bu maqsad quyidagilarga qaratilgan:

- Ayollar va qizlar uchun zo‘ravonlikdan holi hayot;
- Erkin ta’lim olish va yetakchilik imkoniyati;
- Mehnatda, siyosatda, oilada teng huquqlar;

Keling, endi O‘zbekistondagi vaziyat haqida fikr yuritamiz. O‘zbekiston tarixida ham ayollarga nisbatan an’anaviy tassavvur uyg‘ongan edi ya’ni uy bekasi, oila tayanchi sifatida. Biroq, mustaqillikdan keyin bu holat ancha yaxshilana boshladi, davlat ayollar mavqeyini

---

<sup>76</sup><https://www.unwomen.org/en/partnerships/goodwill-ambassadors/emma-watson#:~:text=UN%20Women%20Goodwill%20Ambassador%20Emma%20Watson,.i%20an%20opportunity%20more%20exciting>

<sup>77</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Valentina\\_Tereshkova](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Valentina_Tereshkova)

<sup>78</sup> <https://doi.org/10.1093/icon/mor068>

<sup>79</sup><https://www.un.org/sustainabledevelopment/gender-equality/#:~:text=Gender%20equality%20is%20not%20only,achieve%20gender%20equality%20by%202030>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



oshirish bo‘yicha siyosatni qaytadan ishlab chiqdi. Birinchi navbatda gender tengligi Asosiy qonunimiz Konstitutsiyaning 58-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan<sup>80</sup>:

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydi.

Shuningdek, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Oila va xotin-qizlar<sup>81</sup>” qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, bu tashkilotning ham asosiy vazifalaridan biri gender tengligini ta‘minlash hisoblanadi. Ayollarning eng dolzarb siyosiy huquqlaridan biri ovoz berish huquqi edi. O‘zbekistonda bu konstitutsiya bilan mustahkamlanga, shuning yangi islohotlardan biri saylovda ayollar ham nomzod ko‘rsata olishi qat‘iy belgilanib qo‘yilgan, ya,ni bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ayollar soni qirq foizdan kam bo‘lmasligi kerak bu esa ro‘yxatdagi ketma-ketlik bo‘yicha har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozim.<sup>82</sup>

Afsuski shuncha yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan, Jahonda har uch ayolning biri jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lmoqda. Xususan O‘zbekistonda oilada ayollarning o‘rni hamon namunali emas. Ayollarga nisbatan zo‘ravonliklar, ularni erga tegishga majburlash va boshqalar ko‘paymoqda<sup>83</sup>. Bu esa ,albatta , uquvsizlik va qonunni tushunmaslik oqibatida kelib chiqmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada gender tengligining mohiyati, u uchun kurashayotgan ayollar xalqaro va O‘zbekistondagi siyosiy ahvol bilan tanishdik. Albatta, vaziyat o‘tgan davrlarga qaraganda ancha yaxshilangan, lekin bu hammasi o‘z o‘rniga tushdi degani emas, balki yanada jasorat bilan kurashishimiz kerakligini anglatadi. Negaki ayollarimiz o‘quvsiz ekan bu jamiyat aslo rivojlanmaydi. Ishonchim komilki, tenglik degan oyna sinib qolsa, insoniyat o‘z aksini buzilgan oynada ko‘rishga majbur bo‘ladi!

---

<sup>80</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445657>

<sup>81</sup> [https://gov.uz/en/wcu/activity\\_page/gender\\_equality](https://gov.uz/en/wcu/activity_page/gender_equality)

<sup>82</sup> <https://lex.uz/en/docs/-4386848#-6708446>

<sup>83</sup> <https://t.me/AzizAbidov/4556>

